

«PORTNI REZERVLASH» QO‘SHIMCHA XIZMATI

Xizmat Asosiy xizmatlar bilan bog‘langan

qo‘shimcha xizmatni taqdim etish qoidalari va shartlari

1. Zarur holda Abonent «Portni rezervlash» - Operator uskunasidagi portni abonentga saqlagan holda tanlangan va foydalaniladigan Asosiy xizmatlardan foydalanishni vaqtincha uzib qo‘yish qo‘shimcha xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega.
- 1.2. «Portni rezervlash» qo‘shimcha xizmati jismoniy va yuridik shaxslar uchun Asosiy xizmatlar bilan bog‘liq, shartnomalar tuzilgan Asosiy xizmatlarga qo‘shimcha xizmat sifatida taqdim etiladi.
- 1.3. «Portni rezervlash» qo‘shimcha xizmatining narxi amaldagi Narxnomada ko‘rsatiladi.
- 1.4. Xizmatni aktivatsiya qilishning minimal muddati – 1 oy. Kalendar yili davomida xizmatdan foydalanishning maksimal muddati – 2 oy.
- 1.5. Xizmatdan kalendar oyining faqat birinchi sanasidan foydalanish mumkin va kalendar oyining o‘rtasida aktivlashtirib bo‘lmaydi.
- 1.6. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun xizmatni aktivatsiya qilish Abonentning Sotuvtalar Ofisiga yozma arizasi asosida bajarilishi mumkin.
- 1.7. Abonent tomonidan e’lon qilingan «Portni rezervlash» xizmatining amal qilish muddati tugaganidan keyin xizmat tegishli kalendar oyining 1-sanasidan avtomatik ravishda deaktivatsiya qilinadi va abonentning Shaxsiy hisob raqamidan joriy tarif rejasiga muvofiq abonent to‘lovi va «Portni rezervlash» xizmati uchun to‘lovning tegishli summasi hisobdan chiqariladi.
- 1.8. «Portni rezervlash» xizmatini aktivlashtirgan Abonent (yuridik yoki jismoniy shaxs)ning ushbu xizmatni muddatidan oldin deaktivatsiya qilish va avvalgi yoki yangi tarif rejasida foydalanish xizmatlarini davom ettirish xohishi bo‘lganda, quyidagi qoidalari amal qiladi:
 - 1.8.1. Abonent (jismoniy yoki yuridik shaxs) xizmatni deaktivatsiya qilish sanasi va maqbul tarif rejasini (joriy yoki yangi) ko‘rsatgan holda sotuvtalar ofisida xizmatni deaktivatsiya qilish uchun yozma arizani rasmiylashtirishi zarur. Asosiy xizmatlardan foydalanish ko‘rsatilgan sanadan va ko‘rsatilgan tarif rejasida asosida avtomatik ravishda aktivatsiya qilinadi.
 - 1.8.2. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun «Portni rezervlash» xizmatining to‘liq bo‘limgan oy davri uchun summasi 1 oy sifatida hisob-kitob qilinadi.
 - 1.8.3. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun «Portni rezervlash» xizmati uchun avval hisobdan chiqarilgan summa kuyadi, qaytarib berilmaydi yoki qayta hisob-kitob qilinmaydi.
 - 1.8.4. Foydalanishni aktivatsiya qilish boshidan kalendar oyining oxirigacha jismoniy va yuridik shaxslar uchun abonent to‘lovi summasi tanlangan Asosiy xizmat qoidalari va shartlariga muvofiq qayta hisob-kitob qilinadi.
- 1.9. «Portni rezervlash» xizmati Asosiy xizmatlardan alohida taqdim etilmaydi.

1.10. «Portni rezervlash» qo'shimcha xizmatining amal qilish muddati tugaganidan keyin Abonent Asosiy xizmatlar uchun abonent to'lovini to'lamagan holda, Operator abonentning barcha xizmatlarini bir kalendar oyiga blokirovka qiladi. Keyingi oyda Operator bir tomonlama tartibda abonentni tugatadi, bu haqda va Operator uskunasini qaytarishi kerakligi to'g'risida unga xabar qiladi.